

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG’ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O’ZBEKISTONDA RAQS SAN’ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚҮМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Mahmudova Dilafruz Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 61-69

Мехмоналиев Улугбек Эркинжон уғли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ .70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажонова Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O’ZBEKİSTON VA XORİJIY DAVLATLARNING O’RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хайтевич</i>	
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ ИҚТисодий АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёров Бобур Баходир ўғли</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomtdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i>	
О'zbekiston SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i>	
OLIY TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEHNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i>	
TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i>	
SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i>	
IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i>	
AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIY IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i>	
JAMIyatda ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i>	
MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i>	
TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизқулов Ақрам Абдурахмонович</i>	
ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИННИГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i>	
BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i>	
MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIY SALOHIYATNING IJTIMOIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i>	
O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Аззамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'rakov Bobir Baxtiyorovich</i>	
IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i>	
NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i>	
ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i>	
MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukhan Islom qizi</i>	
SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Toшпулатова Ширин Мухиддиновна</i>	
ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i>	
SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinvich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yulliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOIY VA КОММУНИКАТИВ QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i>	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nusrultanqizi</i>	
TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i>	
LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i>	
SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLER VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i>	
DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i>	
FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i>	
KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i>	
MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i>	
LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i>	
TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i>	
BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIK DAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i>	
UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i>	
TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаrimovich</i>	
СЎЗЛАШУВ НУТҚИННИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i>	
SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLER UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i>	
ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i>	
ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi

CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system) 416-428

Касимов Нодиржон Содикжонович

ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ 429-438

Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович

ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 439-445

Джалилов Сардор Шавкатович

ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ 446-453

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Mirzayev Qodir Toirovich

ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 454-458

Васильченко Ольга Анатольевна

ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 459-463

Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович

ҮҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 464-470

Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna

TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI 471-477

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

ABU ALI IBN SINO QARASHALARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI 478-482

Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA 483-486

Raxmanova Dildora Abdulkamid qizi

INGLIZ TILIDA AKADEMİK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOILIYATIDAGI AHAMIYATI 487-492

Rajabiy Aziz Xasanovich

VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI 493-497

Omanov Rashid Sherqobilovich

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH 498-501

Салимов Акром Хайитович

БЎЛАЖАК ҮҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 502-507

Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i>	
СИНЭРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ	
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаева, Азаматов Абдулло Исахўжаса ўғли, Лутфуллина Румия</i>	
<i>Анваровна</i>	
ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА	
ХАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i>	
АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ	
КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i>	
TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA	
AHAMİYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI	
OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Xakimova Gulshan Abdusalilovna</i>	
JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI	
TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i>	
TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER	
TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI	
RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING	
AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH	
VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i>	
O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH	
METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbanovich</i>	
MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI	
VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitora Bahromovna</i>	
ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A	
SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i>	
INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV	
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI	
LANGUAGE)	604-616

<i>Tursunova Shahnoza Bekchanovna</i>	
JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'RNATISH	617-622
<i>Atoyeva Gulshoda Rabimovna</i>	
OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	623-628
<i>Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbanova Aziza Davlat qizi</i>	
JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI	629-635
<i>Jamolova Mokhigul Bakhtiyorovna</i>	
METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH FAIRY TALES	636-641

Xo'janova Tamara Jo'raevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: tamaraxujanova7@gmail.com

YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMLALARI

Annotatsiya. Maqolada yoshlar ma'naviyatiga tahdidlar va ulardan yoshlarning ongli himoya qilish usul va ko'nikmalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. O'zbekistonning kelajagi har jihatdan uzuksiz ta'limning holati bilan aloqadordir, chunki mutaxassis hodimlar tayyorlash darajasi azaldan xalqning iqtisodiy gullab yashnashi, madaniyati, ma'naviyati va hattoki ruhiyatini ham belgilab kelgan. Shuningdek, maqolada yoshlarni o'z fikrlariga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganligini anglab olish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: yoshlar, tarbiya, g'loballashuv, ma'naviyat, ruhiyat, vatanparvarlik, fidoiylik, usul-uslublar, informatsion xurujlar, targ'ibot.

Khojanova Tamara Juraevna

Associate Professor at the Denova Institute of
Entrepreneurship and Pedagogy, Doctor of Philosophy (PhD),

SKILLS FOR CONSCIOUS PROTECTION OF YOUTH FROM THREATS TO SPIRITUALITY

Abstract. The article scientifically analyzes threats to the spirituality of youth, as well as methods and skills for consciously protecting youth from them. The future of Uzbekistan in all respects is connected with the state of continuous education, because the level of training of specialists has long determined the economic well-being, culture, and spirituality of the nation. The article also analyzes the widespread introduction of modern information and computer technologies, which ensures the effectiveness of spiritual and educational propaganda in raising young people to be strong-willed, selfless and patriotic people who have their own opinions and know how to firmly stand their ground. against various spiritual attacks, an effective method aimed at strengthening the ideological immunity of our society. The need to realize that the development of methods, the preparation of appropriate recommendations and manuals for government and public organizations is becoming our important task today.

Keywords: youth, education, globalization, spirituality, spirituality, patriotism, dedication, methods, information attacks, propaganda.

Хужанова Тамара Жураевна

Доцент Института предпринимательства и педагогики Денова,
доктор философских наук (PhD)

НАВЫКИ СОЗНАТЕЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ ОТ УГРОЗЫ ДУХОВНОСТИ

Аннотация. В статье научно проанализированы угрозы духовности молодежи, а также методы и навыки сознательной защиты молодежи от них. Будущее Узбекистана во всех отношениях связано с состоянием непрерывного образования, ведь уровень подготовки специалистов издавна определяет экономическое благополучие, культуру, духовность нации. Также в статье анализировано широкое внедрение современных информационных и компьютерных технологий, что обеспечивает эффективность духовно-просветительской пропаганды в воспитании молодежи волевыми, самоотверженными и патриотичными людьми, имеющими собственное мнение и умеющими твердо стоять на своем. против различных духовных атак, эффективный метод, направленный на укрепление идеологического иммунитета нашего общества. Необходимость осознавать, что разработка методов, подготовка соответствующих рекомендаций и пособий для государственных и общественных организаций становится сегодня нашей важной задачей.

Ключевые слова: молодежь, образование, глобализация, духовность, духовность, патриотизм, самоотверженность, методы, информационные атаки, пропаганда.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N30>

Kirish. Yoshlarning ma'naviyatiga tahdid soladigan xavflar va ulardan o'zini ongli himoya qilish ko'nikmalari ta'lif-tarbiya, ota-onalar o'gitlari, yaxshilik va yomonliklarni ko'rishi va bilishi jarayonida shakllana boradi. Bolaga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak, degan savollarga asoslangan bog'cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya yo'lga qo'yilsagina har bir millat sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Immunitet esa o'z navbatida odamni to'g'ri yo'ldan "ozish"dan, turli yo'llarga adashib, keyin pushaymon bo'lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa — parokandaliklardan, parchalanishlardan, sinfiy, mahalliy yoki boshqa bo'linishlardan asrab turadi. Demak, mafkuraviy immunitet — davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbli va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda" [1].

Bugungi kunda tahdidlarning turlari, tez ta'sir o'tkazish yo'llari ko'paydi va ommalashib bormoqda. ularning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin: diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, giyohvandlik, ommaviy madaniyat, odam savdosi, kosmopolitizm, ludomaniya, missionerlik, prozelitizm, nigelizm, zo'ravonlik, neofashizm, shovinizm, egotsentrizm, individualizm, OITS, starizm (yulduzlarga ko'r-ko'rona taqlid), vandalizm (madaniy va moddiy yodgorliklarni vayron qilish), axloqsizlik, fohishabozlik, behayolik, bir jinsli nikohlar, xeppining (vahshiyona ko'ngil ochishlar).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XXI asrda yashayotgan zamondoshlarimiz uchun axborotning ahamiyati suv va havoning ahamiyatidan kam emas. "Dunyo – axborot makoni" tushunchasi ong va shuurlarga shu qadar chuqur singib ketdiki, dunyo hamjamiyatining haqli a'zosi – subyektiga aylanish istagidagi har qanday davlat va shu davlat fuqarolari mazkur axborot makonidan mustahkam o'rin egallashining ahamiyatini so'z bilan ta'riflash qiyin [2; 24-25-bb.].

Bugungi milliy yuksalish sharoitida mamlakatimizda yoshlarni insonning ma'naviy takomilini yuksaltirish, ma'rifatli shaxs etib tarbiyalash muhim ustuvor yo'naliishga aylandi. Bu esa, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarning mamlakatda olib borilayotgan islohotlarda faol ishtirokchi bo'lishini ta'minlaydi. Q.Quronboyevning ta'kidlashicha, "Adolatli, demokratik jamiyatni qurish va rivojlantirish sharoitida mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan birga aholi ong-u tafakkurida ma'naviy-ruhiy qadriyatlarning qaror topishi insonlar dunyoqarashining tubdan o'zgarishi, O'zbekistonning milliy taraqqiyotining rivojlanishiga xizmat qilmoqda" [3; 237-b.].

Milliy mafkurani takomillashtirish masalasi ham endilikda nafaqat milliy, balki global xarakter ham kasb etadi. Lekin, globallashuv jarayoni N.Jo'raev [4; 459-b.] to'g'ri qayd etganiday, hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko'proq "hozirgi davr global muammolari"ni vujudga keltirgani bilan xarakterlidir. Ko'pchilik mutafakkirlar bu davrni hatto global krizis (bo'hron) davri deb atamoqdalar. Masalan, "XX asr krizisni kuchli his etish bilan boshlangan edi va shu hissiyot bilan poyoniga etdi" [5; 132-b.], — deb yozadi rus faylasufi S.I.Dudnik. Darhaqiqat, globallashuv zamonaviy jamiyatga ko'plab ijobiy jihatlar olib kirish bilan birga, insoniyat taraqqiyotidagi shunday pallani ham o'zida aks ettiryaptiki, endilikda dunyo xalqlari vujudga kelayotgan muammolarga qarshi yolg'iz kurasha olmaydi, ularni birgalikda hal qilish mumkin. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy, madaniy meros va qadriyatlarni saqlash zaruriyati [6; 486-491-bb], globallashuv jarayoni va ma'naviy tahdidlarning yoshlari ma'naviyatiga ta'siri [7; 37-41-bb.], dunyoda terrorizm tahdidlariga qarshi "Ma'naviyat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasining o'rni [8; 23-27-bb.], globallashuv jarayoni to'g'risida zamonaviy yondashuvlar va madaniyatlararo integratsiya [9; 521-524-bb.] kabi muammolar eng dolzarb vazifalardan biridir.

Maqolani yozishda tizimlilik, vorisiylik, analiz va sintez, umumiylilik, xususiylik va yakkalik, tarixiylik va mantiqiylik kabi ilmiy usullaridan foydalilanilgan.

Muhokama. Bu boradagi eng dolzarb vazifa -barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat. Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo'naliishi – jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yana-da takomillashtirish zarur. Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va mas'uliyatini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur.

Yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash vositalari:

- ta'lif tizimining barcha turdag'i bosqichlari uchun ijtimoiy an'analardan dasturlar asosida elektron darsliklar tizimini yaratish;
- muzeylar bilan hamkorlikda, ko'chma muzey mashg'ulotlarni reja asosida sifatli amalga oshirish;
- telearxiv fondidan foydalangan holda dasturlar asosida mavzular bo'yicha video darslarni yaratish;
- ko'rgazmali qurollar, video, audio yozuvlarni tayyorlash;

- yuqoridagi materiallardan foydalanish uchun internet tarmog'i orqali masofadan o'qitish uslubidan foydalanish tizimini yaratish.

Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Shunday ekan, yurtimizda yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz lozim. Toki, yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, bizga mutlaqo begona g'oyalari ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Insoniyatning azal-azaldan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi o'zgarmasdir.

Yosh avlodni ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishda, xalqimizdagи uchrab turadigan va azaldan uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan noma'qul odatlarni anglash, ularni bartaraf etish yoki ular keltiradigan noxush holatlarning oldini olish bugunning zarurati hisoblanadi, chunki ular millat va jamiyatni ichdan kemiruvchi illatlardir.

Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish vazifasi, eng avvalo, keng jamoatchilikning, ayniqsa, ziyolilar, olim va adiblar, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlangan insonlarning zimmasiga tushadi.

Odamzod va jamiyat hayotida og'ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg'usi avvalambor boshqalarni ko'rolmaslik, ularning yutug'idan quvonish o'rнига, kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo'ladi. Azal-azaldan ochiqko'ngil, samimiylar mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi.

Ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat bu – sotqinlikdir. Har qanday yovuzlikni sotqinlik keltirib chiqaradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'limgan, ularga ishonmagan odam qo'rinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odamning rahbarlik kursiga o'tirishi, tinchlik, osoyishtalikka rahna solishi aniq. Tarixdan mamlakatda fuqarolar va davlatlararo urushlarning boshlanishiga ko'pincha ana shunday sotqin kimsalar sabab bo'lganligi ma'lum.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra: "Jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish; islom va jahon sivilizatsiyasiga beba ho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ong-u tafakkurini shakllantirish [10] kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilish, boy diniy merosimizdan jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro ishonch, mehr-oqibatni shakllantirish orqali xalqimizning milliy o'zligini teranroq anglab olishlariga keng imkoniyat yaratishga urg'u berildi.

Yosh avlodni ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishda, xalqimizdagи uchrab turadigan va azaldan uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan noma'qul odatlarni anglash,

ularni bartaraf etish yoki ular keltiradigan noxush holatlarning oldini olish bugunning zarurati hisoblanadi, chunki ular millat va jamiyatni ichdan kemiruvchi illatlardir.

Inson biror jismoniy kasallikka chalinsa, uning oldini olish, davolash mumkin. Millat ma'naviyatining zaifligi, uning xarakteridagi hafsalasizlik, befarqlik, g'ayratsizlik, o'zaro ichki munosabatlarda aldamchilik, qo'pollik, johillik, xudbinlik, yalqovlik va boshqa nuqsonlarda namoyon bo'ladi. Demak, hozirgi o'zimizni o'zimiz barkamol qilishimizga to'sqinlik qilayotgan ma'naviy jarohatlarimizni davolashimiz uchun masalaga aniq, ya'ni real milliy xarakterni o'rganish va o'zgartirish omili sifatida yondashmog'imiz zarur.

Natijada millatning o'z ahvoliga o'zining munosabati, ijobiylarini oshirish va qusurlarni ma'rifiy yo'l bilan davolab, kuchlantirib, jahonning ilg'or millatlari safiga qo'shilishi mumkin.

Jamiyatning o'z ertasi va kelajagiga ishonchi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Buning zamirida millat baxt saodati yo'lida, demak har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus faoliyat — mafkuraviy tarbiya yotadi. Mafkuraviy tarbiya deganda gap, "kishilar dunyoqarashini boshqarish haqida emas, balki odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish"ni ham anglatadi [11; 88-b.].

Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha erda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi.

Mafkuraviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o'zini himoya qiluvchi ham — g'oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Bu — mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Demak, qaysi tomonning yengishini pirovard natijada ilmga asoslangan targ'ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi — targ'ibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin. Shu sababli "Milliy istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanish uchun qator talablarga javob berishi zarur. Ana shunday talablardan biri — har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishidir [12; 45-49-bb.].

Natija. Jamiyatga yot mafkuralar o'z g'oyalarini birdaniga olib kira olmaydi. Ular avvalo mahv qilinishi kerak bo'lgan millat azaldan ishonib kelgan narsalarga ishonchini, umidini so'ndiradi. Buning uchun millat ishonib kelgan narsalar yomonlanadi, obro'sizlantiriladi. Natijada mafkuraviy immunitetni sindirishning birinchi bosqichi amalga oshadi — millat o'zi ishonib kelgan g'oyalar, qadriyatlarga befarq munosabatda bo'la boshladi. Azaliy qadriyatlarga amal qilinmay qo'yiladi, odamlarda ularga amal qilmayotganlarga loqayd munosabat urf bo'ladi. Qadriyatlar, g'oyalar qadrsizlanadi, ahamiyatsiz narsalarga aylanib qoladi. Bo'shliq ana shunday yaratiladi, "ochib olinadi".

Mafkuraviy bo'shliq ochib olingach, endi uning o'rnini to'ldirish o'z g'oyasini jozibali tasvirlay boshlanadi. Buzg'unchi g'oyaga xos "yangilik" va u berayotgan va'dalar odamlar qulog'i va ko'zi orqali ong va qalbiga kira boshlaydi. Mafkuraviy bo'shliq shu tariqa to'ldira boshlanadi. Yolg'on g'oya odamlar ongiga kirsa, u ham katta kuchga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lismiz mumkin. Butun xalqni birlashtiradigan bayroq bo'lmish milliy g'oyani shakllantirish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida bitilgan bitiklarda ham o'z ifodasini topgan, uning yorqin ifodasini

qadimgi Sharq va islom falsafasining buyuk namoyandalari ijodida ham uchratish mumkin [13; 364 b.].

Insoniyat tarixida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, bunga erishilmaganda bu qanday fojalarga olib kelishi mumkinligi haqida bitiktoshlarda qoldirilgan millatga ogohlantirish da'vatlari mavjud. Mana shulardan biri mafkuraviy kurashlar tarixida targ'ibot usullaridan, jumladan mish-mishlarning kelib chiqish sabablari, maqsadlari haqida ulug' allomalarimizdan Abu Rayhon Beruniy bundan ming yil burun o'z davri uslubida shunday yozgan edi [14; 32-b.]:

"Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi. Chunki odamlarning maqsadlari xilma-xil; xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p", — deb yozadi va mish-mish tarqatuvchilarning yolg'on so'zlashidan aniq manfaatlar yotishi haqida shunday deydi: "...bir kishi o'zini ko'rsatish maqsadida boshqa bir zid jinsni ayblab, yolg'on gap yoyadi, chunki u shu bilan (zid jins ustidan) g'alaba qozongan va o'z istagiga erishgan bo'ladi.

Bu ikki xil xabarning yomon istak va g'azab taqozosidan kelib chiqishligi ma'lum. (Ikkinchi bir kishi esa) o'zi sevadigan bir tabaqaga minnatdorchilik bildirmoqchi bo'lib yoki yomon ko'radigan bir sinfni xafa qilmoqchi bo'lib, ular o'rtasida yolg'on xabar tarqatadi. Bu xil (xabar tarqatuvchi) avvalgi xabar beruvchi muxbirga yaqin bo'ladi. Chunki bu xabarni do'stlik yoki dushmanlik natijasida tarqatgan bo'ladi. Shuningdek uchinchi bir kishi o'zining past tabiatliligi sababli biron yaxshilikka erishish yoki o'zining yuraksiz va qo'rqoqligi sababli yomonlikdan qutulish uchun yolg'on xabar tarqatadi.

Shunday kishilar ham bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'rashib qolib, go'yoki unga shu vazifa yuklangandek bo'ladi va yolg'on xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi. Bu, yomon xohishlardan va tabiatiga buzuq fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi. Ongi va qalbiga milliy g'oyani jo qila olgan har bir o'quvchi va talaba har qanday buzg'unchi fikrlarga munosib javob berishni, yet va zararli g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilib, turli aqidaparastliklarga qarshi munosib kurasha oladi.

Xulosa. Jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga hamisha e'tibor bilan qarab kelinmoqda. Jamiyat hayotini o'zgartirishga urinayotgan shaxslarning yoshlar ongini zaharlashiga yo'l qo'ymaslik, ularning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy dunyo-qarashi qanchalik yuksak bo'lsa, milliy g'oya kishilar dunyoqarashida qanchalik yuksak bo'lsa, milliy g'oya kishilar dunyoqarashida qanchalik keng o'rin egallab borsa, jamiyatimizda ijtimoiy g'oyaviy muhit shunchalik musaffo bo'ladi. Albatta, yoshlarimizda g'oyaviy tarbiya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zamon talabi, bunda oila va mahalladan tortib, ta'lim muassasalarida kuchaytirish talab etiladi.

Bugungi kunda yoshlar muammolarini o'rganish, tahlil etish, xulosalar tayyorlash va takliflar berishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir:

1. Targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish.
2. Suhbatlar, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish.
3. Seminar trening, ilmiy anjuman o'tkazish.
4. O'quv-uslubiy qo'llanma chop qilish.
5. Ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni muntazam tashkil etish.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish muhim:

- yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi faoliyatlariga yana kengroq yo'l ochish va uni ta'minlash uchun ularning o'zlaridagi faoliylik, islohotlar jarayonlariga kamarbastalik,

islohotlarga ishonch, demokratik qadriyatlarning abadiyligiga suyanish fazilatlarini tarbiyalash;

- yoshlarning yangilikka intilishi, tashabbuskorligi, erkin bozor iqtisodiyotiga tez ko'nikishi, yangi-yangi innovatsion g'oyalarini rag'batlantirish;

- sog'lom avlod tarbiyalash faoliyatini qo'llab-quvvatlash va barcha zarur imkoniyatlarni yaratish, sog'lom avlod tushunchasi sirasiga esa nafaqat jismoniy sog'lomlik, ichki ruhiy, psixologik, ma'naviy va mafkuraviy sog'lomlik unsurlarini kiritish, yoshlar sog'lomligini umuminsoniy va milliy qadriyatlarni negizida qurish;

- yoshlar kayfiyatlar, manfaatlari va ijtimoiy-siyosiy ahvolini o'rganish va ilmiy tahlil etish bo'yicha turli sotsiologik tizimlar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli monitoringini amalga joriy etish.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. www.press-service.uz
2. Do'stmuhammad Xurshid. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.
3. Quronboev Q. Rahbar ma'naviyati. –Toshkent, Tafakkur, 2017.
4. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Дудник С. И. Парадигмы исторического мышления XX века: очерки по современной философии культуры. СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001.
6. Masharipova G.K. Globallashuv sharoitida milliy, madaniy meros va qadriyatlarni saqlash zaruriyati // "O'zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrash" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent-Denov – 2023 yil. - 486-491-bb.
7. Masharipova G.K. Globallashuv jarayoni va ma'naviy tahdidlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri. // "Sog'lom avlod tarbiyasida ma'naviyatning o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – T., 2014. - 37-41-betlar.
8. Masharipova G.K. Dunyoda terrorizm tahdidlariga qarshi "Ma'naviyat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasining o'rni // "Globallashuv sharoitida ma'naviyatga tahdid soluvchi omillar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari material lari – Toshkent, 2019 yil 6 fevral. - 23-27-betlar.
9. Masharipova G.K. Globallashuv jarayoni to'g'risida zamonaviy yondashuvlar va madaniyatlararo integratsiya masalasi // «Mustaqillik sharoitida xalqimizning g'oyaviy tarbiyalanishining dolzarb masalalari» mavzusida onlayn respublika miqyosida ilmiy-nazariy anjuman. 2020-yil 5 may. - B.521-524.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni//Xalq so'zi, 2018 yil 17 aprel.
11. Xo'janova T.J. "Mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g'oyaviy himoyalash omili(ijtimoiy-falsafiy tahlil)" mavzusidagi falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi . – Samarqand, 2021. – 140 b.
12. Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2000.
13. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019. - 364 b.
14. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. II-jild. – Toshkent: Fan, 2022.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).